

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT TO'QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT
INSTITUTI**

«LIBOSLAR DIZAYNI» KAFEDRASI

KARIMOVA MOHIGUL

**Xon-atlas matosidan ayollar oqshom liboslari to'plami dizayn loyihasini
ishlab chiqish**

mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi

Ilmiy rahbar:

prof. Kamilova X.X.

«___»_____2015 y.

TOSHKENT 2015

Mundarija

Kirish.....	3
1. Loyiha oldi qismi.....	6
1.1. Kolleksiya konsepsiyasini ishlab chiqish.....	6
1.2. Ayollar liboslari bo'yicha istiqbolli moda yo'nalishi tavsifi.....	8
1.3. Marketing tadqiqotlar.....	11
1.4. Ayollar liboslar to'plamiga qo'yiladigan talablar.....	12
1.5. Ijodiy manbaani tanlash, asoslash va uslublash.....	14
2. Loyiha qismi.....	17
2.1. Eskiz loyihalash.....	17
2.1.1. Kolleksiyaning kompozitsion yechimi va koloristik qatorini tanlash.....	17
2.1.2. Yakunlovchi eskizlarni yaratish va modellarni texnik tavsifini ishlab chiqish.....	25
2.1.3. Texnik eskizlarni yaratish.....	
2.2. Kolleksiyaning loyihalash usulini tanlash va asoslash.....	41
2.3. Konstruktor - texnologik qism.....	
2.3.1. Kolleksiya uchun materiallar paketini konfeksiyalash.....	43
2.3.2. Konstruksiya usulini tanlash va asoslash.....	45
2.3.3. Buyum asosiy detallar chizmalarini qurish uchun dastlabki ma'lumotlar.....	46
2.3.4. AK va BK hisobi va qurish.....	50
2.3.5. AK va BK konstruktiv - dekorativ modellashtirish.....	55
2.3.6. Ishchi hujjatlarni ishlab chiqish.....	56
2.3.6.1. Yangi modellar andozalarini tayyorlash tamoyillari tavsifi.....	63
2.3.6.2. Andozalar joylashmasi.....	64
2.3.7 Texnologik ishlov berish xususiyatlari.....	65
2.4. Kolleksiya reklama loyihasini ishlab chiqish.....	66
2.4.1. Nom tanlash (Brand-name).....	66
2.4.2. Kolleksiya reklama loyihasini ishlab chiqish.....	66
3. Ekologik qism.....	68
Xulosa.....	70
Adabiyotlar ro'yxati.....	71
Ilova.....	

Kirish

Respublikamizda dizayn sanoat mahsulotlari bozordagi mavqeini, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan muammolarni hal etish, mahsulot raqobatdoshligini oshirish kabi masalalar bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Korxonalar ishlab chiqarish maqsadlarini amalga oshirish, yangi tovarlar ishlab chiqarish uchun ishlab chiqarish resurslari – ishlab chiqarish vositalari va ishchi kuchidan samarali foydalanish zarurdir. Lekin taraqqiyotning barcha bosqichlarida iqtisodiyotning doimiy va bosh muammosi ehtiyojlarining cheksizligi va iqtisodiy resurslarning cheklanganligi bo'lib kelgan. Mana shunday sharoitda kishilarning yashashi, kamol toppish uchun zarur bo'lgan hayotiy vositalarni ishlab chiqarish va iste'molchilarga yetkazib berish g'oyat ma'suliyatli vazifadir [1].

O'zbekistonda xalqni yuqori sifatli, turli assortimentdagi mavsumbop bichimli, estetik ko'rinishi jihatidan aholi talablariga mos keladigan kiyimlar bilan ta'minlash, jahon bozorlarida raqobatbardosh bo'lgan sifatli mahsulot ishlab chiqarishdir.

O'zbekiston Respublikasi o'zining mustaqil taraqqiyot yo'liga asoslangan holda bozor iqtisodiyotiga to'la ishonch bilan o'tib bormoqda. Bugungi kunda rivojlanishning yo'liga o'tish, ilm – fan yutuqlarini ishlab chiqarishda samarali qo'llash, yangi texnologiyalardan keng foydalanishgina iqtisodiy o'sishning jadalligini, davlatlarning jahon hamjamiyatidagi raqobatbardoshligini, ularning iqtisodiy havfsizligi hamda jahon iqtisodiyotiga teng huquqli integratsiyalashuvi darajasini belgilab beradi.

Iqtisodiy sohada olib borilayotgan islohatlarning pirovard maqsadi – iqtisodiyotni erkinlashtirish orqali aholida erkin va farovon hayotni ta'minlashdan iboratdir. Amalga oshirilayotgan islohatlar ichida yengil sanoat ham o'z o'rniga ega. Chunki, Respublikamiz sanoat ishlab chiqarishda yengil sanoat tarmog'i yetakchi o'rinlardan birini egallaydi.

Dizayn sanoat mahsulotlari va xalq iste'mol mollarining sifatini oshiruvchi kuchli vosita ekanligi tan olinmoqda, turli dizaynerlik tashkilotlari

tashkil topmoqda. Respublikamizda dizayn sohasini rivojlanishida qilinadigan ishlarimizning ko'lami nihoyatda keng.

Zamonaviy badiiy jarayonda "prkt-a-porte" va "yuksak moda" xamisha o'ziga chorlovchi serjilo xususiyatiga ega. U allaqachon sanoatning amaliy ijrosi chegarasidan chiqib, yorqin, o'ziga xos g'aroyib tantanaga aylangan. Uning namoyishi bizni xayratga soladi, o'ylantiradi, xayajonlantiradi, olingan har qanday tasurot samarasi – yanada chorlovchi diqqat e'tiborini qamrab oluvchi tomoshadir. Madaniyat dunyosi ramzlar, belgilar va ishoralar dunyosidir. Inson libosni tabiatdagi nobop ta'sirlardan saqlanish vositasi sifatida idrok eta boshlaganidan buyon u insonning badiiy shakllar kashf etish, o'zida qadimiy amaliy va estetik didni mujassamlashtirish buyumlarni yaratish qobiliyatning ramzi bo'lib qoldi.

Mavzuning dolzarbligi: Hozirda milliy xon-atlas matolarimizni ommaboblashtirish, "xon-atlas" matolarimizdan zamonaviy, yoshlarbob kiyimlar yaratish, mato xususiyatlarini inobatga olgan holda, uni setka matosi bilan uyg'unlashtirish imkoniyatlarini ochib berishdan iboratdir.

Tanlangan to'plamni milliy ruhdagi zamonaviy liboslar yaratish asosiy bosh maqsadlaridan biridir. Hozirgi kunda xon atlas matolaridan ayollarimiz uchun oqshom liboslarini yaratish asosiy maqsadlarimizdan biridir. Negaki, milliy matolar qo'llanilgan ayollar ko'ylaklarini deyarli hamma texnikada aks ettirilganini ko'rish mumkin. Endilikda, xon atlas matosi naqshlarini takrorlab turli rangdagi dekor sifatida qo'llaniladigan toshlar va setka matolari bilan bezak berildi. Mavzuning dolzarbligi shundaki, milliylik va zamonaviylikni chambarchas bog'lagan holda, milliy ruhga ega bo'lgan zamonaviy liboslar to'plamini yaratish bilan birgalikda- milliylikimizni yuqori darajaga yetqazishdir. O'z kolleksiyalarini namoyish etayotgan dizaynerlar yildan yilga ko'payib, milliylik ruhimiz oshib bormoqda. Buni hozirda ommaning kundalik kiyinish uslubiga ham ta'sir qilmoqda. Yosh dizaynerlar o'z ishlarini ko'rsatish uchun hozirda turli hil namoyishlar o'tkazilmoqda. Bularga, "Bolajonlar – shirintoylar", "Xon atlas" va "Milliy libos" defilyesi misol bo'la oladi. Bu diplom loyihada ham milliy matolarimizdan yaratilgan yangi milliylik ruhi talqin etilgan to'plamning

dizayn va texnologik qismi ishlab chiqilgan. Bu loyihada o'zbek milliyligi bilan zamonaviylik ruhi uyg'unlashga holda ayollar uchun nafis oqshom liboslari yaratildi. Loyihadan maqsad ayollarni tashqi go'zalligidan tortib ichki go'zalligigacha, ayollarni ko'rish mumkin bo'lgan bor go'zallikni shu to'plamda namoyish etish.

Bitiruv malaka ishining maqsadi: Xon atlas matosidan ayollar oqshom liboslari to'plami dizayn loyihasini ishlab chiqish.

Bitiruv malaka ishining vazifalari:

- Kolleksiya konsepsiyasini ishlab chiqish;
- Ayollar liboslari to'plamini istiqbolli moda yo'nalishini tahlil etish;
- Marketing tadqiqotlarini olib borish;
- Ayollar liboslari to'plamiga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqish;
- Ijodiy manbani tanlash va asoslash;
- Kolleksiyaning kompozision yechimini va koloristik qatorini ishlab chiqish;
- Kolleksiyaning loyihalash usulini tanlash;
- Kolleksiya reklama loyihasini ishlab chiqish;

1. Loyiha oldi qismi

1.1. Kolleksiya konsepsiyasini ishlab chiqish

Konseptuallik - bu loyiha madaniyatining mohiyatini asoslaydigan umumiy ijodiy ko'rsatmadir. Ijodiy konsepsiya loyihaning qiymati va ma'naviy mazmunini belgilaydi. Ijodiy konsepsiyaning mazmuni va xarakteri nafaqat muallifni shaxsiy dunyoqarashi bilan balki loyiha madaniyati va jamiyatini rivojlanish asosiy raqobatlari bilan bog'liq. Dizayn insonlarning ehtiyojini hisobga olishi zarur va ular muamolarini yechishda o'z hissasini kiritish lozim [12].

Dizaynda konsepsiya – asosiy g'oya, maqsadlarni, vazifalarni va vositalarni ma'naviy yo'nalishidir.

Kostyum dizaynida mavjud konsepsiyalar odatda o'z davr va dizaynining asosiy muammolarni oqimidadir va turmush tarzini o'zgarish umumiy raqobatlari bilan bog'lanishidadir. Ya'ni buyumning funksiyasiga dizaynerlar o'zgacha qarashadi, garderobini ta'minlash turli konsepsiyalarni tarafdorlari bo'ladi, har xil shakllantirish usullarini qo'llashadi, turli turmush tarzda yashayotgan insonlarga o'z kiyimlarini taklif etadi.

Dizayn konsepsiyalarini loyihalash quyidagi asosiy yo'llar bilan kechadi:

- baholash yo'li loyihalashni jamiyat va insonning turmush tarzi va shaxsning turini, ijtimoiy va shu jumladan, estetik qoidalari bilan bog'liq ob'ektiv va sub'ektiv boyliklarni yaratish faoliyatini ko'rib chiqadi;
- tizim yo'li dizayner loyihalash ob'ekti moddiy – funksional va ijtimoiy – madaniy elementlarini o'zaro bog'liq tizim sifatida ko'rib chiqadi. Tizim yo'li muhit, uning elementlarini, inson va jamiyatni ishtirokida o'tayotgan jarayonlar orasidagi aniq funksional bog'liqlarni aniqlashni ko'rib chiqishni talab qiladi. Loyihalashda shunday yo'lning natijasi – tizimli ob'ektni tuzilishi;
- muhim yo'li – inson fazoviy – buyum muhitini, hayotiy atrofini o'zlashtirish natijasini ko'rib chiqadi. Insonning faoliyati va muomalasi muhitni ayrim elementlarini birgalikda bog'laydigan markaz va aniqlaydigan faktor sifatida

e'tiborga olinadi. Bu holda loyihalash yaxlit siymoni yaratishga va muhitni funksional tashkil etishga yo'naltirilgan.

Dizaynerlarning muallif ijodiy konsepsiyalari, odatda, loyiha madaniyatni rivojlanish umumiy tendensiyalaridan xoli emas va dizaynda mavjud u yoki bu umumiy konsepsiyalarga qayd qilmaydi.

Bitiruv malaka ishida konsepsiya sifatida shaffof elementlar tanlab olindi.

Kiyimdagi shaffof elementlar 2015-yil bahor va yozning yana bir zamonaviy tendensiyasi hisoblanadi. Lekin faqatgina to'r matosigina emas, balki boshqa matolarni ishlatish mumkin. Umuman olganda, shaffof kiyimlar ketma-ket ko'p yillar davomida moda dunyosida etakchilik qilmoqda, lekin har bir mavsumda yangicha talqinlarda korish mumkin. Shaffof elementlar kiyimning istalgan qismida bolishi mumkin. Masalan, etak qismida, yelka qismida, yeng qismida va hk.

Shuning uchun ham "shaffof elementlar va ikat matolarining uyg'unligi" asosiy g'oya qilib olindi. Ushbu to'plamda mato naqshlariga hamohang bezak mato setka ishlatilgan va yorqin rangli toshlar bezak sifatida qo'llanildi.

1.2. Ayollar liboslari bo'yicha istiqbolli moda yo'nalishi tavsifi

2015 – yilda romantika uslubida ishlovchi dizaynerlarni ishi oldingidan juda o'zgacha bo'lib, unda ayollarni nozikligini shu qadar go'zal tasvirlashgan. Bu go'zallikni mashhur dizaynerlar ishlarida ko'rshimiz mumkin. Masalan, bular Elia Saab, Ziyad Nakad, Giambattista Valli va Nina Ricci. Bu dizaynerlar ishlarida biser, qimmatbaho toshlar, nafis gullar va vishfkalar shu qadar mohirlik bilan ishlanganki u liboslardan ko'z uzib bo'lmaydi [26] .

Giambattista Vallining 2014 – yildagi to'plamida romantika uslubining “yuksak moda” yo'nalishini ko'rishimiz mumkin(1-rasm). Uning liboslaridagi nafis gullarni shunchalik mahorat bilan joylashtirganki, libosga o'zgacha ko'rinish va bahor nafasini olib kelgandek bo'ldi. Valli o'z to'plamida ochiq ranglardan foydalangan. Masalan, och pushti, oq, havo rang, och shaftoli rang va qaymoq rang. Bezaklariga yorqinroq ranglardan foydalangan. Masalan, qizil, siyohrang va to'q qizil.



1-rasm. Giambattista Valli

Elia Saabning 2015 – yildagi to'plamida ham shunga o'xshash manzarani ko'rishimiz mumkin (2-rasm). Lekin uning albatta o'z yonalishi va uslubi bor. Uning liboslarida doim ayollarni go'zalligini ko'rishimiz mumkin. Elia Saabning bu to'plamida kundalik kiyimlar bilan birga oqshom ko'ylaklariniyam ko'rishimiz mumkin. Bu to'plamida dizayner qo'lda tayyorlangan gipyurda mahorat bilan ishlagan. To'plamida asosan barcha ranglar ishlatgan. Ular, oq, qora, ko'k, yashil, qizil, sariq, siyohrang.



2-rasm. Elia Saab

Ziad Nakadning 2015 yildagi kolleksiyasida ham romantika uslubining “yuksak moda” o'nalishini ko'rishimiz mumkin(3-rasm). Dizayner oqshom liboslariga biser, qimmatbaho tosh va matolar bilan ishlov bergan. Uning kolleksiyasida har xil tUSDagi ranglardan foydalangan. Ziad o'z kolleksiyasida ayollar qomatini har xil Burma va tahlamalar bilan ochib bera olgan.



3-rasm. Ziad Nakad

2014-2015 yildagi bashang liboslar ko'rgazmalari turli hil davlatlarda o'tkazildi. Bo'lib o'tgan ko'rgazmalarda ayollarni noziklik bilan namoyish eta olishgan. Romantika uslubida ishlayotgan barcha dizaynerlarning to'plamlarini silueta bir xildir.

1.3 Marketing tadqiqotlar (o'xshash modellar tahlili)

Marketing tadqiqotlari deganda marketing faoliyatining turli jihatlarini bo'yicha ma'lumotlarni sistemali yig'ish, tartibga solish va tahlil qilish tushuniladi. Marketing tadqiqotlari marketologlarni axborotlar orqali bozor, istemolchilar, raqobatchilar va marketing tashqi muhitning boshqa elementlari bilan bog'lovchi funktsiya hisoblanadi. Ayniqsa, bozor munosabatlari tobora chuqurlashib borayotgan bugungi kunda har bir korxona uchun marketing tadqiqotlari o'kazishning ahamiyati beqiyosdir, chunki marketing tadqiqotlariga asoslanib, korxonalar mahsulotlariga bo'lgan talabni va bu mahsulotlarning raqobatdoshligini qanday ekanligi haqida ma'lumotlar oladilar [12].

Marketing tadqiqotlari korxona faoliyati haqidagi noaniqliklarni kamaytirishga yordam berib, korxonaning samarali faoliyati haqidagi noaniqliklarni kamaytirishga yordam berib, korxonaning samarali faoliyatini ta'minlaydi.

2015-yildagi bozorni tahlil qilganda shu ma'lum bo'ldiki, bu yil oddiylikka qiziqish qaytdi. Kundalik kiyimdan tortib boshqar kiyimlarga ham iste'molchi ochiq, yengil ranglarga talab bildirishmoqda. Ayniqsa boshqar liboslarda odiylik, hech qanday boshqar toshlari, marvaridlarsiz kokteyli liboslarga talab ko'payibdi. Bularni barchasidan ko'rinib turibdiki odamlar yana odiylikka, nafis go'zallikka intilishmoqda.

1.4 Ayollar liboslari to'plamiga qo'yiladigan talablar

Iste'molchi tomonidan oqshom liboslariga qo'yilgan talablar.

Loyihalanayotgan buyumga qo'yiladigan talablar:

Kiyimni sifatini baholash uchun iste'molga oid sifat ko'rsatkichlari va texnik iqtisodiy ko'rsatkichlarga bo'linadi.

Iste'molga oid ko'rsatkichlar deb, insonning buyumni iste'mol qilish jarayonidagi muayyan talablarni qondirishga qaratilgan buyum xossalari tushuniladi. Iste'molga oid ko'rsatkichlarga ijtimoiy, funksional, estetik, ergonomik, eksplutatsion ko'rsatkichlar kiradi [11].

1. Ergonomik talab jumlasiga buyumni ekspatsiya qilish davrida inson uchun qulay sharoit yaratuvchi, uni toliqtirmaydigan sharoit tug'diruvchi faktorlar kiradi.
2. Estetik talab jumlasiga model konstruksiyasining badiiy butunligi, mukammaligi va zamonaviy moda talabiga javob berishi hamda haridorligi kiradi. Estetik xususiyatga ega bo'magan kiyim foydasiz buyumga aylanadi, chunki u o'z maqsadi funksiyasini – insonning estetik talabini qondiradigan o'ziga xos xususiyatini bajara olmaydi.
3. Funksional talab da model aniq bir vazifaga mo'ljallangan, iste'molchining antropometrik o'lchamlari guruhiga mos bo'lishi kerak. Ayni buyumning vazifasi modelga, uning konstruksiyasiga va materiallariga qo'yiladigan talablarni shakllantira oladi.
4. Eksplutatsion talab buyumni foydalanishga yaroqli holini uzoq muddat davomida saqlay olish qobiliyati. Bunda model o'z shaklini saqlovchanligi, materialning mustahkamligi, biriktiruvchi choklarning uzilishiga chidamliligi kabi talablarga javob berishi kerak.
5. Ijtimoiy talab buyumning ishlab chiqish va sotishga muvofiqligini bildiradigan ommaviy ehtiyojlarga mosligini harakterlaydi. Mahsulot sifatini ta'minlashda ijtimoiy omillar roli ilmiy – texnik taraqqiyot va moddiy farovonlik o'sgan sari oshaveradi.

Texnik – iqtisodiy ko'rsatkichlar konstruksiyaning texnik jihatdan mukammallik darajisini, ishlab chiqarishga iste'molchi harajatlarini hisobga olgan holda kiyimni loyihalash va texnologik usullarini bildiraradi. Texnik – iqtisodiy ko'rsatkichlarda standartlash va unifikatsiyalash, konstruksiyasining ishlov berishga qulaylik darajisini va tejamlilik ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi.

Ayollar libosini yaratayotganda uning texnologik jihatdan ishlov berishga qulayligi hamda choklarning pishiqligini taminlovchi va qayta ishlov berishga qulaylik yaratishda ekspluatatsion ko'rsatkichlarni ham hisobga olish zarur.

Konstruksiyaning standartlashtirish va unifikatsiyalashtirishga model seriyasining ishlov berishga qulaylik jihatdan yaqinligi, model seriyasining konstruktiv jihatdan yaqinligi ko'rsatkichlar kiradi.

Konstruksiyaning ishlov berishga qulayligiga ekspluatatsiya jihatidan ishlov berishga qulayligi, ishlab chiqarish jarayonida ishlov berishga qulayligi ko'rsatkichlari kiradi.

Tejamkorlik ko'rsatkichlariga bir dona maxsulotga sarf xarajatlar darajasi hamda buyum ekspluatatsiyasiga sarf harajatlar kiradi. Loyihalanayotgan buyumning tejamkorlik talablarga javob berishini taminlash maqsadida ko'p mayda detallarga ega bo'lgani model loyihalanganligi qo'l keladi. Chunki avra gazlamasidan chiqadigan chiqitlar kamroq bo'lib, andozalarni to'shamaga joylashtirish qulaylik tug'diradi.

1.5 Ijodiy manbaani tanlash, asoslash va uslublash

Dizayner kostyum kolleksiyasini yaratishda ijodiy manbaa sifatida har qanday tabiiy hodisalar, buyum muhitining turli elementlari, dunyoda sodir bo'layotgan voqealar, musiqa, rang tasvir, adabiyot, balet , teatr, sirk, kino, tomosha tadbirlari, etnik mavzular, me'morchilik, muhandislik inshootlari, mashina detallari, turli mexanizmlar, maishiy buyumlar, amaliy san'at asarlari (shisha, tosh, yog'och, metall, keramika va b.), musiqa asboblari, yer fakturasi, yulduzli osmon, origami o'yini, ekologiya, tarixiy, xalq va klassik kostyumlar, eklektika usuli, parodiya usuli, stilizatsiyalash usuli va h.k. dan foydalanish mumkin.

Har bir dizayner o'z faoliyatining muayyan bosqichida tarixiy va xalq an'analari bilan ilhomlanib, ijodiy manbaalarga murojat qiladi.

Inson ko'rish qobiliyatining ba'zi bir fiziologik xususiyatlariga ko'ra, ikkala ko'zning ko'rish maydoni elips shaklida bo'ladi. Bu elipslar ichiga to'g'ri to'rtburchak shakli mos tushadi. Demak, inson (intuitiv) ichki sezgisi, asosida o'zini o'rab turgan shu mutanosiblikda ko'radi.

Ijodiy jarayon - shakl va mazmun birligini jamlash uchun muhim. Ba'zan yangi va qiziqarli ijodiy manbaa topish muammoga aylanadi. Bu an'anaviy dizayn usullari yordamida hal qilinadi. Shuning uchun loyiha dizayner ijodiy fikrlashiga va dizayn jarayonining kuchaytirishi, rivojlantirishga qaratilgan.

Butun dunyo bo'ylab dizaynerlar dizaynning har bir sohasida yangi g'oyalar qidiraptilar (sanoat mahsulotlari, kiyim-kechak, uy-ro'zg'or buyumlari yoki qadoqlash dizayn bo'lsin), birinchidan, yangi mahsulotlar yaratish, ikkinchidan zamonga mos bolish uchun. Tovarlarini ishlab chiqaruvchi firmalarga qiziqarli g'oyalar muhim va yangi original g'oyalar cheksiz emas. Bu qidiruv usullarida rassom-dizaynerlari yordam beradi.

Evristika (grekcha - ochiq) - samarali ijodiy fikrlashni o'rgatadigan fan hisoblanadi. AQSh va Rossiya olimlar Intuitiv usullarni rivojlantirishga salmoqli hissa qo'shmoqda. Noan'anaviy usullari, ijod deb atalmish texnologik usullarini

an'anaviy empirik usullar bilan bir qatorda samarali o'rganish va amaliy bajarilishi bo'lishi mumkin.

Bu tartibga solish va ijod jarayonini faollashtirishga imkoniyati beradi.


Usul uyushmasi - g'oyalarni shakllantirish usullaridan biri. Agar dizayner ijodiy xayoli, turli g'oyalar mukammal bo'lsa buyuk ta'sir berishi mumkin. Bundan tashqari, zamonaviy dizayn ijodiy fikrlash loyihalashning mutlaqo yangi yo'li hisoblanadi.

Dizayni birlashtiruvchi manbaa, buga dizayner fikrining rivojlanishi, grafik turlari va psixologik birlashmalari kerak. Ijodiy jarayonda assotsiativ fikrlash juda muhim ahamiyatga ega.

San'at har qanday ish kabi fikrlash uchun ijrochining (dizayner) qobiliyati, ijod asosidir. Dizayner kiyimni kiyim aylantirishi uchun hohlagan narsani ijodiy manba qilib olishi mumkin. aylantirish mumkin deyarli hech narsa olishi mumkin.

Libos dizaynida ijodiy manba har qanday tabiiy hodisalar, ijtimoiy voqealar, bizni o'rab turgan ob'ektlar bo'lishi mumkin. Dizayner kiyim yaratganda ularga hajmlar, inshootlar turlari bilan bog'lagandan, har qanday shakllardan ham manfaatdordir.

Konsepsiyaga asoslanib, tanlangan mavzudan yiroqlashmagan holda, ijodiy manbaga "olov" olindi (4-rasm). Ayollar assortimenti uchun eskizlar ishlab chiqildi. Ijodiy manbada ranglar yorqinligi, olov yonayotganda atlas matosi ikatlarini qaytarayotganligi kabi xususiyatlarga tayanildi.



4- rasm. Olov

Olov ijodiy manbaa sifatida tanlab olinganiga asosiy sabab u yonayotgan paytda xon-atlas ikatlarini oxshash.

Bitiruv malakaviy ishida tanlangan ijodiy manbaa - olov.

2. Loyiha qismi

2.1.1. Kolleksiyaning kompozitsion yechimi va koloristik qatorni tanlash

Rang buyumning eng muhim informatsion sifatlaridan biri hisoblanadi. Bizni o'rab olgan tashqi muhit – rangli olam tabiatda rangsiz mavjudot, o'simlik, buyum yo'q. Odam yaratgan asarlari orasida ham rangsiz buyumlar yo'q.

Rang orqali biz mahsulot haqidagi ma'lumotga ega bo'lamiz. Uning rangi og'ir va yengilligiga qarab model yoki buyum haqidagi tasavvurga ega bo'lamiz. To'q ranglarni og'ir, och ranglarni esa yengil tasavvur etamiz. Rangni fizik xossalari ta'siri ko'rimlilik va salobatlilik taasurotini beradi. Ko'pgina tadqiqot o'tkazgan olimlarning asarlarida rang – bu qandaydir kuch deb atalganligi, odamning ruhiga salbiy yoki ijobiy ta'sir etishi mumkin. Ranglar odamlarning turli his-tuyg'ularini uyg'otadi.

San'atning har qanday sohasida kompozitsion tuzilishsiz, uning barcha qism va komponentlarini uyg'unlashtirilmasdan turib, badiiy asar yaratish mumkin bo'lmaydi. Kompozitsion forma va mazmunni – yaxlitlikda ifodalashning muhim vositasidir.

Kompozitsiya – deganda biz ma'lum bir ifodaga ega tuzilmasini yaxlitlikda, maqsadli qurish, qaysiki, qismlari joylashuvi va o'zaro mutanosiblikda, bog'liqlikda bo'lishini va umumlashtirilgan, fikr va mazmunga egaligini tushunamiz.

Kompozitsion yondashuv qismlarining mantiqiy va chiroyli joylashuvini ta'minlaydi hamda formaga yaqqollik, chiroy baxsh etuvchi va mazmunini ravshanlashtiruvchi yaxlitlik yuzaga keladi.

Tuzilish va go'zallik mantiqi, qismlarning yaxlitlik, mutanosiblikdagi uyg'unligi, yuqorida qayd qilinganidek, nafaqat insonning yaratuvchanligiga bog'liq. Kompozitsiya alomatlarini biz tabiat formalarida, o'simliklarning tuzilishlarida, mavjudotlar organizmlarida, koinotning tuzilishida va hokazolarda ham ko'rishimiz mumkin.

Kompozisiya – badiiy asar uchun “materiallarni” tashkillashtirish vositasi hamdir. Material deganda nafaqat, jisimiy ashyo, ya’ni bo’yoq, smal’ta, loy va hokazolar ko’zda tutiladi. Bunda badiiy asrani yakuni yaxlit holiga keltirishdagi ijodiy jarayon uchun kerak bo’ladigan syujet, g’oya, natura, turli davrlar uchun illyustrativ materiallar va hokazolar ham ko’zda tutiladi. Bu haqida taniqli rus olimi (Л.Выгодский) adabiyot asari haqida “Material deganda barcha tayyor turmush munosabatlari, turli voqealar, turmush tarzi, harakterlar tushuniladi” deb yozgan edi.

Aytilgan ana shu materiallarning badiiy qurilish qonuniyatlarini asoslariga ko’ra joylashtirish, tartibotini – shu asarning formasi deyilsa to’g’ri bo’ladi. Chunki badiiy asarning yakuniy namunasida “materiallar” umumlashgan, yaxlit ifoda vositasiga aylangan holda, muallifning xulosaviy natijasi sifatida namoyon bo’ladi.

Kompozision ishlov orqali mazmun va formaning birligiga erishiladi. Shuni ham e’tirof etish joizki, “mazmun” tushunchasi, mavzu, syujet, g’oya tushunchalaridan kengroqdir, chunki u ijodiy jarayon davomida qayta-qayta fikrlanib formalarga ishlov berish tufayli asarda materiallarni uyg’unlashtira olish va badiiy qiymatga erisha olish kabilarni ham o’z ichiga oladi.

Kompozisiya tushunchasining tub ma’nosi – bu qandaydir g’oyani ifodalashda ishtirok etadigan turli unsurlarni o’zaro yaxlit ko’rinishda birlashtirilgan holatidir.

Kompozisiyaning asosi quyidagi prinsiplardan tashkil topadi:

- Maqsadga muvofiqlik prinsipi;
- Murakkablikning umumiyligi prinsipi;
- Dominantlikning mavjudligi prinsipi;
- Qismlarning o’zaro bo’ysundirilganlik prinsipi;
- Muvozanat, qismlarning o’zaro muvozanatda bo’lishi prinsipi;
- Dinamizm (harakat – hayot va san’atda asos sifatida);
- Uyg’unlik prinsipi.

Buyumning tashqi ko'rinishi va chegarasini ifodalaydigan geometrik mohiyati shakl deb hisoblanadi. Shakl (lotin. – forma) – tashqi ko'rinish, chegara ma'nolarini bildiradi.

Shaklni tanlash va uni uzilishidan san'at boshlanadi deb san'atshunoslar hisoblashadi. San'atni boshqa turlariga nisbatan kostyum insonning siymosi va qomatiga ko'ra doimo rivojlanadigan ko'p sathli tizimdir. Shakl tushunchasini quyidagi nuqtai nazarlardan tahlil etilishi lozim: shakl-falsafa kategoriyasi; shakl-ramz; shakl-ob'ekt, buyum; shakl-faoliyat. Shu bilan bir qatorda shakl-bu ketma-ket omillar to'planishi va ularni doimo o'zgarishi, ya'ni tizimning dinamik modeli desa bo'ladi. Shakl tushunchasi insonning dunyoqarashi bilan chambarchas bog'liq. Shakl buyum mavjudligining usuli, texnik va estetik zarurligi bilan ta'riflanadi. Shakl ma'lum psixologik ma'noni ifodalaydi va muayyan siymoli mazmunni ifodalovchi belgi, ramz tizimi deyiladi.

Dizayn shakli yaratilganda quyidagi talablariga ahamiyat beriladi:

- funksional-buyumning texnik maqsadini va insonning utilitar talablarini oldindan aniqlash;
- konstruktiv-texnologik – materialning fizik va mexanik xususiyatlari shakl konstruksiyasini oqilona ifodalash;
- estetik-jamiatning estetik ideallariga buyumning mosligidir.

Kostyum shakli inson bilan chambarchas bog'liq va faqat uning siymosi, o'lchami, harakatini inobatga olgan holda tahlil etilishi lozim.

Kostyumning har bir qatlami o'z xossalariga ega: ustki qatlami: rang, faktura, chiziq, naqsh, bezak, ya'ni kompozision bezak qatlamlaridan iborat; geometrik tarkib, u shakl elementlarining o'zaro proporsional nisbatlarini aniqlaydi; tana va qobiq orasidagi fazo; odam figurasi. Kostyum shakli biologi tizim kabi xususiyatlar to'plami yordamida barpo etiladi. Demak, shakl – bu odam qomati, muhit va belgilangan muayyan funksiya bilan bog'liq, elementlari esa o'zaro tarkibiy moslashgan fazoviy-vaqt modeli. Siymoli, funksional va texnik yechimlari bilan bog'langan shakl geometrik elementlarining ma'lum fazoviy tizimi shakl deb tushuniladi.

Kostyum tarkibi - bu kostyumning ayrim elementlarining (kiyim, bosh va oyoq kiyim, qo'shimchalar, taqinchoqlar) turg'un tashkil etish usuli. Kostyumda shakl – bu uning tarkibini tashqi ko'rinishi. Kostyum tarkibini aniqlash uchun hajmlarning geometrik asoslarini ajratib olish kerak. Bu holda albatta bezak elementlari hisobga olinmaydi. Kostyumda asosan uchburchak, to'g'riburchak, trapesiya va oval kabi tarkib elementlari uchraydi. Tashkiliy prinsipi bo'yicha kostyum tarkibi simmetrik va nosimmetrik bo'lishi mumkin. Bitiruv malaka ishida „prêt-a-porter“ uslubidagi zamonaviy moda yo'nalishi o'rganildi, marketing tadqiqotlari natijasida hozirgi kunda ko'proq trapesiya shaklidagi liboslar urfda bo'lganligi uchun aynan shu shakl tanlab olindi.

Shakl elementlari bilan bimalol foydalanish uchun quyidagi qoidalarini inobatga olish lozim:

- kostyumning xilma-xil turlarini tuzish asosi sifatida bazaviy shakl olinadi, chunki u davrga mos. Ularni sinchiklab o'rganish va kiyim loyihalashda ilmiy izlanishlar o'tqazish kerak. Sanoatni talvasaga solmasdan mantiqiy ravshda yangi shakl va materialni vujudga keltirish uchun talablarni tayyorlash shart;
- maksimal utilitar g'oyani ifodalagan shakl estetik shaklgacha o'sishi kerak. Shaklning mukammal emasligini yashiradigan tikuvchining quvliklari bo'lmasligi kerak va yomon konstruksiyani bezaksimon “yamoqlar” bilan chalg'itmaslik lozim;
- zamonga mos shaklni benihoya plastik ifodalikligi, naqsh va fakturani chuqur ma'noligi, modelni yuksak darajada va aniqlik bilan ijro etganligi istalgan natijani beradi;
- bazaviy shaklni tushunib yetish darajasi modaga nisbatan munosabatini aniqlaydi. Moda – bu bazaviy shaklning namoyoni, ammo har doim uni ta'riflamaydi;
- barcha modali siluettlarni sanoatda ishlab chiqarish shart emas. Faqat kelajagi bor siluettlarga tikilishi lozim. Ko'p fasonlarni yaratishga ham zaruriyat yo'q, chunki ular ishni qiynaltirib, mahsulotni mukammal emasligiga olib boradi.

Rang va shakl. Kostyumning rangli yechimi kompozision g'oyasi bilan chambarchas bog'liq.

Kostyumning rangli yechimi bo'yicha (Г.Петушкова) ning tahlili quyidagini ko'rsatadi:

- shakl geometriklansa, rang quyuqligi kuchayadi, kontrast yechimlari paydo bo'ladi; shakl plastikligi kuchaysa-o'xshash ranglar birikmasi ustunlik qiladi;

- rang gammasini o'zgarishi rang doirasi bo'yicha ketma-ket, sovuq va iliq ranglar baravariga yoki polixromiya (ko'p ranglik) yetakchi bo'lishi mumkin;

- moda gammasi xususiyatini o'zgarish indikatori sifatida polixromiyani ustunligi, noxromatik ranglarni ko'pligi bo'ladi;

- rang va shakl o'zaro bog'liq. Kostyum rangining tahlili quyidagi hulosaga olib keldi: ranglar muayyan geometrik shaklga intiladi, ya'ni qizil ranglar-to'g'riburchak, ko'k ranglar-oval, yashil ranglar-trapesiya shakliga intiladi.

- ranglarni muayyan shaklga intilishi ularni illyuziyalari bilan bog'liq: shakl kichraysa, kostyum koloritida shaklni moddiyligini va zichligini ko'rsatadigan iliq ranglar, kontrast birikmalar bo'ladi; shakl kattalashsa rang gammasi murakkablashib, sovuq tomonga o'tadi, ular shaklni ko'rinish vaznini va kattaligini kamaytiradi;

- fakturani roli kuchayganda kostyum gammasida iliq, yuza ranglar ustunlik qilib, faktura elementlarini ko'rsatadi;

- shakl inqirozga uchragan paytda rangni sovuq va iliq ranglari modaga kiradi, ular tarkibiy illyuziyasini, shakl yuzasini singanligini yoki illyuzor fakturaligini namoyish etadi;

- shakl vujudga kelganda, uni yaqqol ko'rsatadigan intensiv, faktura va ichki yechimlarini tenglashtiradigan ranglar ustunlik qiladi;

- perspektiv shakl ko'pincha qizil va qora rangda beriladi, chunki ular siluetni aniq ko'rsatadi;

-ketayotgan shakl sovuq, murakkab gammada beriladi, ular shaklni inqiroziga imkon tug'diradi, bo'linishlar ko'pligi rangli kontrast birikmalari bilan ta'kidlanadi.

Ranglar kompozitsiyada o'ziga xos xususiylik alomatlari bilan ishtirok etadilar. Barcha ranglar majmuasini 3 ta qatorga ajratish mumkin:

1. Qora va oq ranglar o'rtasida joylashgan kulrang axromatik tonlar;
2. Xromatik ranglar qatorini (spektr ranglar) quyidagi alomatlarga bo'lish mumkin:
 - A) Issiq gamma: sariq, zarg'aldoq, qizil va ularning oraliqlaridagi ranglar;
 - B) Sovuq gamma: yashil, ko'k, binafsha va ularning oraliqlaridagi ranglar;
 - C) Qo'shimcha ranglar – rang doirasidagi bir – biriga diametral qarama – qarshi joylashadilar.
3. Xromatik ranglardan (spektral) axromatik ranglarga qarab beruvchi qator, masalan, yashildan oqqa boruvchi, yashildan qoraga boruvchi ranglar.

Kompozitsiyada ranglarning ishtiroki juda muhim ahamiyatga ega. Dizayn va tasviriy san'atning barcha turlarida rang yechimi asosiy talablardan biridir. Chunki badiiy asarda asosan ko'rkamlik, obrazlilik, xashamatlilik kabi sifatlar rang ishtirokisiz uning emosional ta'sirchanligiga erishib bo'lmaydi.

Dizayn kompozitsiyasiga asosiy talablari quyidagicha: kompanovka talablaridan kelib chiqqan holda qismlarini o'zaro muvofiqlashgan va bog'langan holda joylashuvi; texnika g'oyasiga va uning bajaradigan vazifasiga mosligi, haridorning emosional – hissiy istaklari, talablariga javob beradigan, badiiy obrazli ko'rinishiga ega bo'lgan dizayn mahsuloti; kompozision vositalardan ustakorlik bilan foydalanilgan. Kompleksli yechim birligiga va tartibga erishilganlik kabilar.

Rangni badiiy obrazning ifodalovchi vositalarning asosiylardan biri ekanligini tushunish uchun uning tabiati haqida tushunchaga ega bo'lish lozim. Rang o'zligi (fenomeni) oddiy narsa bo'lmay, u birmuncha murakkabdir. Uning negizida ob'ektivlik – nur va sub'ektivlik – ko'rish kabi bir – biri bilan bog'liq hollar yotadi.

Ranglarni inson ruhiyatiga fiziologik ta'siri.

Qizil – qo'zg'atuvchi, ilituvchi, serharakatlikka undovchi, singuvchi. Butun organizmni serharakatlantiradi, qon bosimini oshiradi, nafas olishni tezlashtiradi.

Zarg'aldoq – qizil singari, unga o'xshash ammo sustroq ta'sir etuvchi.

Sariq – fiziologik jihatdan optimal, charchatmaydigan, nerv va ko'rish faoliyatini stimullashtiruvchi.

Yashil - fiziologik jihatdan optimal, ko'rish organiga eng tanish, orombaxsh, qon bosimini kamaytiradi, kapillyarlarni kengaytiradi, tinchlantiruvchi, mushak harakatlarini qo'zg'atuvchi va hokazo.

Havorang – tinchlantiruvchi, mushaklar tarangligi va qon bosimini pasaytiradi, tomir urishini maromlashtirib nafas olishni sekinlashtiradi.

Ko'k – tinchlantiruvchi, ta'siri asta – sekin siqilishga, ezilishga eltib boradi. Insonning fiziologik tuzilishi tizimi funksiyalarini to'silishiga olib keladi.

Binafsha – qizil va ko'k ranglar effektini o'zida mujassamlashtiradi. Nerv tizimiga siquvchi, ezuvchi ta'sir qiladi.

Umuman olganda turlicha ochargan ranglar tonlari masalan, qizil, sariq, ko'k, yashil, zarg'aldoq va hokazo ranglarning oq qo'shilib yoki o'zaro aralashmasidan hosil bo'lgan tonlar kishi ruhiyatiga murakkablashgan, nozik tuyg'u chaqiradi va turlicha emotsiya tarqatadi.

Ranglarning yana bir sub'ektiv ta'surotlaridan biri bu milliylik faktori bo'lib hududning madaniy an'analari, yoshi, jinsi, shaxsning madaniy darajasi, kasbiy faoliyati turi, psixologik – asabi tuzilishi kabilardir.

Ranglarning ob'ektiv hususiyatlari va ular chaqiradigan reaksiyalar:

- Rang qancha yorqin va to'qroq bo'lsa, psixik reaksiya aniqroq, intensivroq va turg'unroq bo'ladi;
- Ranglar murakkab, xiraroq, o'rta yorqin bo'lsa kishi diqqat e'tiborini kamroq, turg'unsozroq jalb qiladi;
- Ranglarning harakatligiga, og'ir yengilligiga, akustik sifatlariga e'tibor o'rtacha yoki umuman kam yengil qaraladi;

- Ranglarni qabul qilish va rang didi odamlarda turlicha bo'lib, ya'ni tam, hid bilish, sezish, his qilish kabilarga assotsiativ reaksiyasi bir – biridan farqlanadi, qaysiki ularning maxfiy ichki kechinmalari va sezgi organlari faoliyati bilan bog'liq bo'ladi;
- Sariq va yashil ranglar eng boy va xilma – xil reaksiyalar chaqiradi. Chunki ular tabiatda boshqa ranglarga qaraganda ko'proq mavjud bo'lib, ularning xilma – xilligi kishi ruhiyatiga singib qolganligi tufayli ularning assosiativligi ham boy bo'ladi.

Ranglar bizning kayfiyatimizni ko'tarishi yoki uning aksi tushirishi ham mumkin. Rangning bunday xususiyatlaridan foydalanib biz har xil hayotiy hodisalarni o'zimizning foydamizga o'zgartirishimiz mumkin.

Bitiruv malaka ishida o'rta yoshdagi ayollarning psixologiyasi, qiziqishlari va ranglarning inson psixologiyasiga tasiri o'rganib chiqildi.

Taklif modellarni yaratayotgan vaqtning o'zida dizayner, hoh boringki oddiy tikuvchi bo'lsin uni qaysi matodan tikishni ko'z oldiga keltirib ko'radi.

Eskiz yaratayotganda avvalambor unga ketadigan matodan tashqari yana qanday furnitura mahsulotlari ishlatilishini ham inobatga olish lozim.


To'plam yaratilar ekan o'zimizning Marg'ilon xon atlaslarini yorqin rangli toshlar bilan bezatish ko'zda tutildi.

Xon atlas xotin-qizlarimizning husnlariga husn qo'shib yanada go'zallik tuxfa etadi. Xon atlas matosining juda ham ko'p turlari mavjud. Jumladan: Farg'ona yo'llari, Layli guli, Shirin, Maxliqo, Shodiqora, Shoti kapalak, oltin kalit, hamisha bahor, bog'-u bo'ston, Marg'ilon mash'ali shu kabi turlari ko'p tarqalgan.

Xon atlas matolarini va setka matolarini yorqin ranglardagi toshlar bilan bezak berishga qaror qilindi.

Indica

COLLECTION



Asosiy model tavsifi:

Ayollar oqshom libosi: ko'ylak.

Bu libos o'rta yoshdagi ayollar uchun mo'ljallangan mahsus joylarga kiyiladigan bashang oqshom libosidir. Mahsus joylarga mo'ljallangan xon atlas hamda (setka) matoli o'rta yoshli ayollar oqshom libosi.

Libos yopishgan siluetli, ko'ylak uzunligi uzun, taqilmasi ko'ylak orqa o'rta chizig'ida bo'ksagacha molniya tasma.

Ko'ylak kokrak qismida taklif model asosida bezak mato (setka) bilan ishlov berilgan. Etak qismi ham taklif model asosida bezak mato (setka) bilan ishlov berilgan. Ko'ylak orqa qismi o'rta choki davomida kesim modellashtirilgan.

Libosni 84-92 razmerlar va 160-175 bo'ylarga mo'ljallab tayyorlash tavsiya etiladi.

Moka

COLLECTION



2- Modelga tavsif:

Ayollar oqshom libosi: ko'ylak.

Mahsus joylarga mo'ljallangan xon atlas hamda setka matoli o'rta yoshli ayollar oqshom libosi.

Libos yopishgan siluetli, ko'yak uzunligi uzun, taqilmasi ko'ylak orqa o'rta chizig'ida bo'ksagacha molniya tasma.

Ko'ylak old omiz uchburchak shaklda bolib, bezak mato (setka) bn ishlov berilgan. Etak qismi taklif model asosida bezak mato (setka) bn ishlov berildan. Ko'ylak orqa qismi o'rta choki davomida kesim modellashtirilgan.

Libosni 84-92 razmerlar va 160-175 bo'ylarga mo'ljallab tayyorlash tavsiya etiladi.

MaKa
COLLECTION



3-Modelga tavsifi:

Ayollar oqshom libosi: ko'ylak.

Bu libos o'rta yoshdagi ayollar uchun mo'ljallangan mahsus joylarga kiyiladigan bashang oqshom libosidir. Mahsus joylarga mo'ljallangan xon atlas hamda (setka) matoli o'rta yoshli ayollar oqshom libosi.

Libos yopishgan siluetli, ko'ylak uzunligi uzun, taqilmasi ko'ylak orqa o'rta chizig'ida bo'ksagacha molniya tasma.

Ko'ylak etak qismi taklif model asosida bezak mato (setka) bilan ishlov berildan. Ko'ylak orqa qismi o'rta choki davomida kesim modellashtirilgan.

Libosni 84-92 razmerlar va 160-175 bo'ylarga mo'ljallab tayyorlash tavsiya etiladi.

Moka

COLLECTION



4-Modelga tavsifi:

Ayollar oqshom libosi: ko'ylak.

Bu libos o'rta yoshdagi ayollar uchun mo'ljallangan mahsus joylarga kiyiladigan bashang oqshom libosidir. Mahsus joylarga mo'ljallangan xon atlas hamda (setka) matoli o'rta yoshli ayollar oqshom libosi.

Libos yopishgan siluetli, ko'ylak uzunligi uzun, taqilmasi ko'ylak orqa o'rta chizig'ida bo'ksagacha molniya tasma.

Ko'ylak etak qismi taklif model asosida bezak mato (setka) bilan ishlov berildan. Ko'ylak orqa qismi o'rta choki davomida kesim modellastirilgan.

Libosni 84-92 razmerlar va 160-175 bo'ylarga mo'ljallab tayyorlash tavsiya etiladi.

Moka

COLLECTION



5-Modelga tavsifi:

Ayollar oqshom libosi: ko'ylak.



Bu libos o'rta yoshdagi ayollar uchun mo'ljallangan mahsus joylarga kiyiladigan bashang oqshom libosidir. Mahsus joylarga mo'ljallangan xon atlas hamda (setka) matoli o'rta yoshli ayollar oqshom libosi.

Libos yopishgan siluetli, ko'ylak uzunligi uzun, taqilmasi ko'ylak orqa o'rta chizig'ida bo'ksagacha molniya tasma.

Ko'ylak etak qismi taklif model asosida bezak mato (setka) bilan ishlov berildan. Ko'ylak orqa qismi o'rta choki davomida kesim modellashtirilgan.

Libosni 84-92 razmerlar va 160-175 bo'ylarga mo'ljallab tayyorlash tavsiya etiladi.

Konfeksion karta

№	Detall nomi	Namuna
1	2	3
1.	Asosiy mato	
2.	Qo'shimcha mato	
3.	Qotirma	
4.	Ip	
5.	Furnitura	

2.2 Kolleksiyanı loyihalash usulini tanlash va asoslash

Loyiha vazifalarnı eng optimal variantini qidirish jarayonida dizayner modellash va maketlash usullarnı qo'llaydi.

Dizaynda modellash – bu bir butun ob'yektnı yoki ob'yektlar tizimining vaziyatini yoki funksional jarayonini aks etish, tasavvur etish yoki ta'riflab berish jarayonidir. Badiiy siymo, loyiha grafik, retrospektiv, konstruktiv, prespektiv, texnikaviy va kompyuter modellash usullari mavjud [12].

Loyiha – grafik modellash loyiha g'oyasini yaratishda va aks etishda yordam beradi. Loyiha – grafik – modellash quyidagilarnı ko'zlaydi: grafik shaklinı loyiha vazifasining ma'nosiga moslaydi; eskiz loyihani variant qidiruv va tajriba harakati; qo'yilgan vazifani yechish uchun loyiha qidiruvini mantiqiy ketma – ket va tizimli yondashish. Mavjud loyiha g'oyalarnı, texnologiyalarnı, korxonalarning iqtisodiy, badiiy madaniyat yutuqlarini (me'morchilik, rangtasvir, haykaltaroshlik) inobatga olib, dizayner avval o'z tasavvurida kelajak buyumning eskizini va dastlabki grafik tasvirini yaratadi (qidiruv eskiz, for-eskiz). Yangi yechimlarnı qidirish va variantlarnı tanlanish qog'ozda qilinadi. Keyin buyumning tashqi ko'rinishini ta'rifı va amaliy foydalanish qoidasi aniqlanadi. Natijada loyihalanayotgan buyumning badiiy-uslubiy va rangli-fakturaviy yechimi (eskiz loyiha) va konstruksiyasi, modelning proportsiyasi va silueti to'g'risida to'liq ma'lumot beriladi.

Dizaynda eng keng qo'llanadigan usul – retrospektiv modellash, ya'ni timsol va model o'xshashlarnı tahlilga asoslangan va ushbu tahlilni asosida yangi loyiha vazifasini tashkil etish. Ammo, bu usul dizaynning asosiy vazifasini bajarishga imkon bermaydi – yangi buyumlarnı yaratish emas, balki mavjudlarnı takomillashtirishdir [12].

Dizaynda boshqa modellashtirish usul – konstruktiv modellashdir – bu buyumning funksiyasini va morfologiyasini (morfologiya – buyumni funksiyalariga moslashgan) material shaklinı o'zgartirish. Konstruktiv modellash

quyidagicha bo'lishi mumkin: korrektiv – buyumning funksiyasi va shakl takomillashtiriladi; o'timli – buyumga yangi xossalarni berish uchun funksiyani va morfologiya qaytadan tushunib yetiladi (masalan, kiyim dizaynida dekonstruksiya usuli); proeksion – buyumni funksiyasi va shakli qaytadan yaratiladi (kiyim yapon dizayneri I.Myake ijodi).

Dizaynda eng inovatsion usul deb perspektiv modellash yoki loyihaviy prognozlash hisoblanadi, u jamiyatning perspektiv rivojini o'rganish bilan shug'ullanadi va shu timsoliga yetishga imkon beradigan loyihani yaratadi.

Bu bajarilayotgan loyihada kostyumni loyihalash usullari ishlatiladi. Kostyumni loyihalash usullari ketma-ketlik bilan bajariladi. Birinchi bo'lib loyiha – grafik – modellash usuli ishlatiladi. Bunda eskiz qismini qidiruvu bajarilib, asosan milliy amaliy san'atga yuzlanadi. Yog'och o'ymakorlik san'atini me'morchilikda, buyumlarda ishlatilishi ko'rib chiqilib, uning naqshlarini libosga qo'yish g'oyasi ustida ishlaniladi. Va bunga bir qancha for – eskizlar yaratiladi.

Keyingi usulimizga o'tish bu retrospektiv modellashdir. Bu loyiha usulida izlangan for eskizlarga mukammallik kiritish uchun o'xshash modellar ko'rib chiqiladi. Bunda jahon modasiga yani mashhur dizaynerlar ishiga yuzlanadi. Ulardagi matolar, libos siluetlari ko'rib chiqiladi va mos bo'lsa qo'llaniladi.

Uchinchi usul bu konstruktiv modellashdir. Bu usulda deyarli tayyor eskizni konstruksiyasi ko'rib chiqiladi. Ya'ni chizilgan eskizning konstruksiyasiga tanlangan mato yoki tanlangan matoga konstruksiya to'g'ri keladimi yoki yo'q aniqlanadi. Kiyimni funksiyasini va morfologiyasini ham ko'rib chiqadi. Kerak bo'lsa shu loyiha usuli sababli kiyimni funksiyasi va shakli qaytadan yaratiladi.

Va oxirgi tanlangan loyiha usuli bu – prespektiv modellash bo'lib, bu ishlangan loyihani jamiyatga to'g'ri keladimi yoki yo'q, iste'molchi talabiga mosmi, o'zbek mentalitetiga to'g'ri keladimi aniqlaydi. Prespektiv modellash usulida kiyimni shu talablarga mos qilib yaratadi. Ayollarga milliy yog'och o'ymakorligi amaliy san'ati naqshlaridan bashang oqshom libosini yaratish uchun kostyum loyihalashning shu usullari tanlandi.

2.3.1. Kolleksiya uchun materiallar paketini konfeksiyalash

Taklif modellarni yaratayotgan vaqtning o'zida dizayner modelyer uni qaysi matodan tikishni ko'z oldiga keltirib tasavvur qilib ko'radi.

Eskiz yaratayotgan paytda avvalam bor unga ketadigan matodan tashqari qanday furnitura mahsulotlari ketishini chamalab ko'rilishi kerak.

O'lkamizda to'qiladigan ipak, paxta gazlamalarining turlari juda ko'p. Masalan, xon atlas, adras, beqasam, banoras, doz adras va h.k. Bularning bari matolarni bo'yash san'atining yuksakligi mahalliy gazlama to'qish uslublari ular qo'lidan chiqadigan matolar rang - barangligi va naqsh ikatlarning bir - biriga o'xshamasligi, nafisligi bilan ajralib turadi.

Tabiiy tabiat inomlaridan yaratilgan bu matolarda tana bemalol nafas oladi. Ma'lumki, tabiiy matolarning inson sog'lig'iga hech qanday yomon ta'siri va zarari yo'q. Aksincha, u tana nafas olishiga, yordam beradi, terlatmaydi, ventilyatsiya vazifasini yaxshi bajaradi.

Tanlagan mato xon atlas haqida gapiradigan bo'lsak, avvallari bundan 5-6 yil avval xon atlasni kelinlar sarpasida ishlatilar edi. Kelinlar uchun xizmat qiladigan bu matolar endilikda kundalik hayotimizga kirib keldi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Ushbu mavsumda ko'pgina taniqli dizaynerlar bor e'tiborlarini ipak, setka, gepyur matolariga qaratgani ko'rinadi. Moda pokazlarida poudiumga chiqqan ko'p kolleksiyalarda buni yaqqol ko'rish mumkin.

Xon atlas matosidan zamonaviy bichimda bichilgan oqshom liboslari o'rta yoshli ayollarga, balki yosh qizlarga ham birdek yoqadi. Hashamdorligini, jozibadorligini oshirish maqsadida dekor sifatida setka va qimmat baho toshlar bn bezatilgan.

Matolarning mexanik xossalari. Matoning mexanik xossalariga pishiqligi, uzayishi, ishqalanishga chidamliligi, g'ijimlanuvchanligi, qattiqligi va boshqa xossalari kiradi.

Matoning fizik xossalari. Matoning fizik xossalariga gigroskopikligi, havo o'tqazuvchanligi, bug' o'tqazuvchanligi, suv o'tkazmasligi, xo'llanuvchanligi, chang oluvchanligi, elektrlanuvchanligi va boshqa xossalari kiradi. Fizik xossalariga qo'yiladigan talablar gazlamalarning vazifasi bilan belgilanadi va ularning tola tarkibi, tuzilishi va pardoziga bog'liq bo'ladi.

Matoning gigienik xossalari. Ipak gazlamalarining gigienik xossalariga uning inson salomatligi uchun xavfsiz va zararsiz ekanligini ta'minlaydi. Shunga ko'ra ipak gazlamalar o'zida gigroskopiklik, havo o'tkazuvchanlik va xalqaro standartlar (ISO, ASTM), Respublikamizdagi mavjud standart metodikalari tomonidan baholandi.

Gazlama xossalariga tolaning uzunligi, qalinligi, ularning mustahkamligi, mayinligi va pishiqligi kabi omillar ta'sir ko'rsatadi.

2.1-jadval

№	Mato nomi	Mato tarkibi		Qalinligi		To'qilishi	Eni	Og'irligi
		Tanda	Arqoq	Tanda	Arqoq			
1.	Xon-atlas matosi	ipak	ipak			polotno	40	
2.	Setka matosi		sun'iy	230		polotno	160	
3.	Qotirma	kapron	viskoza	520	410	jakkard	150	80

2.3.2. Konstruktsiyalash usulini tanlash va asoslash

Unifrend Aldrich- moda industriyasida yuqori malakali kadrlarni o'ziga jalb etuvchi ingliz metodikasi hisoblanadi. Liboslarni konstruktsiyalash- bu jarayon hisoblanib, uning asosiy obyekti "qomat-kiyim" sistemasidir. Qomat bo'yicha ma'lumotning, o'lcham beyelgilarining, qomat tuzilishining o'ziga xos xususiyatlarining qanchalik to'liqligiga qarab chizmalarning sifati belgilanadi. Velikobritaniyada 20 ta o'lcham belgilarini YEMKO SEVning 32 ta o'lcham belgilari va 14 ta tekshiruv belgilari bilan qiyoslash uchun ishlatiladi. Shu sababli ko'pgina konstruktiv parametrlar hisoblanmaydi va ayollar tipaviy qomatiga mos tekshirilgan o'xshashliklar orqali amalga oshiriladi.

Konstruktiv nuqtalarning belgilanish sistemasi va noldan boshlab o'sib boruvchi raqamlarning ishlatilish asosiga binoan andozani qurish sxemasining mohiyati bo'yicha har bir nuqtaning joylashish ketma-ketligini aniqlash mumkin. Konstruktorlik modyellashtirishning barcha usullari rasmga olingan bo'lib, modellarning texnik rasmlari va konstruktorlik o'lchamlar asosida bajarilgan andozalar sxemasi ko'rsatib o'tilgan.

Ingliz metodikasi tipaviy va notipaviy qomatlarga chizmalarni tayyorlash jarayonida paydo bo'luvchi qiyinchiliklarni bartaraf qilish bo'yicha tavsiyalardan iborat. Shuningdek, dyetal chizmalarini balansini va mos kelishini tekshirish bo'yicha noyob metodika keltirilgan bo'lib, ular orqali maket matosidan tayyorlangan birinchi namunaning bichilish o'lchamlarining to'g'rililigini tekshirish va qomat ustida tekshirib ko'rish mumkin jarayonlarini amalga oshirish mumkin.

Unifrend Aldrich ingliz metodikasi modellashtirishning va konstruktsiyalashning noyob usullarini yaratishda dizayner g'oyasini rivojlanishiga imkon byeradi.

Tipoviy figuraning o'lchamlari

2.2. – jadval

№	Nomlanishi	Shartli belgi	O'lcham, sm
1	2	3	4
1.	Bo'y		175
2.	Ko'krak aylanasi 3	OГ3	88
3.	Bel aylanasi	OГ	70
4.	Bo'ksa aylanasi	Oб	94
5.	Yelka kengligi	Шс	34,4
6.	Ko'krak kengligi	ШГ	32,4
7.	Yelka qiyama kengligi	ШП	12,25
8.	Boyin aylanasi	Oш	37
9.	Ko'krak vitochkasi chuqurligi	Рнв	7
10.	Yelka uzunligi belgacha	Дтс	41
11.	Old uzunligi belgacha	Дтп2	41
12.		Впрз	21
13.	Beldan tizzagacha uzunlik	Дтк	58,5
14.	Beldan bo'ksagacha uzunlik	Дтб	20,6
15.	Bel chiziq balandligi	Влт	104
16.	Bel chizig'idan orindiq yuzasigacha masofa	Дс	28

AK qurish uchun qo'shimchalar

2.3. – jadval

№	Qo'shimchaning nomlanishi	Shartli byelgi	O'lcham Qo'shimcha, sm
1	Ko'krak aylanasi qo'shimcha	П г3	5
2	Orqa o'mizi balandligini qo'shimcha	Пвпрз	0,5
3	Yelka kengligiga qo'shimcha	Пшсп	0,5

Asos konstruktsiya chizmasing hisobi (176-84-92)

2.4. - jadval

№	Konstruktsiya bo'lagi	Formula, xisob	Qiymati, sm
Baziz to'ri			
1.	0 - 1*		1,5
2.	1 - 2*	$B_{np3} + 0,5$	21,5
3.	2 - 3	$0,5O_{r3} + 5$	49
4	3 - 4*	/0 - 2/	κ
5.	1 - 5	D_{TC}	41
6.	5 - 7*	D_{TB}	20,6
7.	7 - 8	$0,5O_6 + 2,5$	49,5
Ort bo'lak			
8.	0 - 9	$1/5O_{III} - 0,2$	7,2
9.	1 - 10*	$1/5B_{np3} - 0,7$	3,5
10.	9 - 11	$III_{II} + 1$	13,25
11.	12	$0,5III_{II}$	6,125
12.	12 - 13*		Pastga - 5 Chap tomonga - 1
13	2 - 14*	$0,5III_c + 0,5$	17,7
14.	14 - 16	$0,5 / 14 - 15 /$	κ
15.	17	$/2 - 17/ = /17 - 14/$	κ
Old bo'lak			
16.	4 - 20	$1/5O_{III} - 0,7$	6,7
17.	4 - 21	$1/5O_{III} - 0,2$	7,2
18.	3 - 22*	$0,5III_{II} + 0,5P_{BH}$	19,7

19.	3 - 23	$/3 - 23/ = /23 - 22/$	к
20.	23 - 26		2,5
21.	20 - 27*	РВН	7
22.	11 - 28		1,5
23.	27 - 30	ШП	12,25
24.	22 - 31	$1/3 /3 - 21/$	к
25.	32	$0,5/14 - 22/$	к

2.3.5. AK va BK ni konstruktiv-dekorativ modellashtirish.

Ayollar oqshom liboslari asos konstruksiyasida yelka qirqimidagi ko'krak vitochkasi model bo'yicha yon qirqimga ko'chirildi.

Eskiz bo'yicha ko'ylak to'piqqacha uzaytirilgan va etak qismi dekorativ modellashtirilgan. Yelka uzunligi eskiz bo'yicha toraytirilgan - 7 sm.

Old bo'lagida xon-atlas ikatini takrorlab uchburchak shaklida bezak qirqim berilgan - bezak mato setka.

Bo'yin o'miz shakli saqlanib qolgan.

Andozalardagi chok haqlari

2.5.-jadval

№	Detal va qirqimlar nomi	Chok haqi nomi va qiymati, mm				
		Briltirma	Mag'iz	Buklov	Kirishtirish	Qirqish
1	2	3	4	5	6	7
1.	01. Ort bolak - bo'yin qirqim - yelka qirqim - o'miz qirqim - yon qirqim - etak qirqim - o'rta qirqim	10 10 10 10 10 10	5	15		
2.	02. Old bo'lak - boyin qirqim - yelka qirqim - o'miz qirqim - yon qirqim - etak qirqim	10 10 10 10	5	15		
3.	03. Bezak detal (atlas) - o'rta qirqim - bezak detalining briktiruv qirqimi - yon qirqim - bezak detalining briktiruv qirqimi - etak qirqim	10 5 10 5	5	15		

4.	04. Bezak detal (atlas) - yon qirqim - bezak detalining briktiruv qirqimi - etak qirqim - bezak detalining briktiruv qirqim	10 5 5	5	15		
5.	05. Bezak detal (setka) - boyin qirqimi - bezak detalining briktiruv qirqim	10 5				
6.	06. Bezak detal (setka) - yon qirqim - bezak detalining briktiruv qirqim - etak qirqim - bezak detalining briktiruv qirqim	10 5 10	5	15		

7.	07. Bezak detal (setka) - bezak detalining briktiruv qirqim	5				
8.	08. Bezak detal (setka) - bezak detalining briktiruv qirqim - etak qirqim - bezak detalining briktiruv qirqim -	5 5	5	15		
9.	09. Bezak detal (setka) - yon qirqim - bezak detalining briktiruv qirqim - etak qirqim	10 5	5	15		
10.	010. Ort adib - o'rta qirqim - boyin qirqimi - yelka qirqim - o'miz qirqim - yon qirqim - pastki qirqim	10 10 10 10 10 10	5			

11.	010. Old adib					
	- yelka qirqim	10				
	- o'miz qirqim	10				
	- yon qirqim	10				
	- tashqi qirqim	10	5			

Andazalar spetsifikatsiyasi

2.6.-jadval

№	Qismlar nomi	Qismlar soni		Belgilanishi
		bichimda	andazada	
	1	2	3	4
1	Ort bo'lak	1	2	01
2	Old bo'lak	1	1	02
3	Bezak detali (atlas)	1	2	03
4	Bezak detali (atlas)	1	2	04
5	Bezak detali (setka)	1	1	05
6	Bezak detali (setka)	1	1	06
7	Bezak detali (setka)	1	1	07
8	Bezak detali (setka)	1	2	08
9	Bezak detali (setka)	1	2	09
10	Ort adib	1	2	010
11	Old adib	1	2	011

**Detallarda tanda ipining nominal yo'nalishi va andozalarda ulardan yo'l
qo'yilgan og'ishlar.**

2.7.-jadval

№	Detal nomlanishi	Tanda ipi yo'nalishi	Tanda ipining yo'l qo'yilgan og'ishi, %
1	2	3	4
01	Ort bo'lak	Bel chizig'iga perpendikulyar	3%
02	Old bo'lak	Bel chizig'iga perpendikulyar	3%
03	Bezak detali (atlas)	Etak chizigiga perpendikulyar	2%
04	Bezak detali (atlas)	Etak chizigiga perpendikulyar	2%
05	Bezak detali (setka)	O'rta chiziqqa parallel	1%
06	Bezak detali (setka)	Yon chiziqqa parallel	1%
07	Bezak detali (setka)	O'rta chiziqqa parallel	1%
08	Bezak detali (setka)	Etak chizigiga perpendikulyar	1%
09	Bezak detali (setka)	Etak chizigiga perpendikulyar	1%
010	Ort adib	O'rta chiziqqa parallel	1%
011	Old adib	Yon chiziqqa parallel	1%

Andazalarda nazorat kertiklar qo'yish joylarining ro'yhati

2.8.-jadval

Andazalarga nazorat kertiklar qoyish

№	Detallar va qirqimlar	Kertiklar joylanishi
1	2	3
1.	Old bo'lak - Yon qirqim - O'miz qirqim	bel chizig'ida 36 (.)
2.	Ort bo'lak - Yon qirqim - O'miz qirqim - O'rta qirqimdagi kesim	bel chizig'ida 35 (.)
3.	Old adib - O'miz qirqim	36 (.)
4.	Ort adib - O'miz qirqim	35 (.)

2.3.6.1 Yangi modellar andazalarini tayyorlash tamoyillari tavsifi

Detallar andazalarining chizmasi bu ularning konstruksiyasini, shakli va o'lchamlarini, ishlov berish hamda bichishdagi texnik shartlarini ifodalaydigan texnik hujjatdir. Andazalarning chizmasi buyumni tuzuvchi barcha detallarga, konstruktorlik hujjatlarning yagona sistemasi talablariga muvofiq tayyorlanadi.

Kiyim detallari andazalarining chizmasi konstruksiyaning model xususiyatlari kiritilgan texnik chizma asosida tavsiya qilingan materiallar xususiyatlari haqidagi va ularga texnologik ishlov berish usullari to'g'risidagi ma'lumotlar yordamida tuziladi. Andazalar chizmasi quyidagi ketma-ketlikda bajariladi:

- konstruksiya chizmasi batafsil tekshiriladi;
- chizmaga gazlamaning kirishuvchanligi bilan bog'liq aniqliklar kiritiladi;
- detallar chizmasining nusxalari boshqa qog'ozga tushiriladi;
- asosiy detallar andazalarining ishchi chizmasi quriladi;
- hosila va yordamchi andazalarning ishchi chizmalari quriladi;
- ishlab chiqarishda foydalanishga mo'ljallangan andazalar chizmasidan andazalar shablonlari tayyorlanadi.

Qayd etilgan ketma-ketlik quyidagi tartibda amalga oshiriladi. Konstruksiya chizmasini tekshirish maqsadida old va orqa bo'laklar, qirqma yon bo'lak, yenglar, ostki yoqa singari asosiy detallarning nusxasi maxsus moslama yordamida chizmadan qalin qog'ozga ko'chiriladi va qirqib olinadi. Qirqib olingan andazalar shablonida ko'krak, bel, bo'ksa chiziqlari, old o'tar chizig'i, vitachkalar, cho'ntaklar chizig'i va boshqa asosiy konstruktiv chiziqlar belgilanadi.

Andazalar shabloni yordamida konstruksiya chizmasida biriktiriladigan qirqimlarning tengligi, konstruktiv qirqimlar tutashmalari, nazorat kertiklar joylarining detallarda o'zaro mosligi tekshiriladi.

2.4 Kolleksiya reklama loyihasini ishlab chiqish.

2.4.1 Nom tanlash (BRAND-NAME)

Moda industriya sohasida reklama muhim o'rin egallaydi. Reklama va biron narsa haqida ommaga ma'lumot berish, savdo yetakchisidir. Har bir iste'molchi o'z shaxsiy ehtiyojlariga ega, betakror shaxsdir. Iste'molchining umumlashtirilgan tavsiyasini yaratish uchun birinchi qadam, uning muayyan garuh, yoshlar, ayollar, ziyolilar, ishchilar va hokazolarga mansubliklari bo'lishi mumkin. Hozirgi kunda har bir iste'molchi o'z uslubiga ega bo'lishni hoxlaydi.

Ushbu liboslar to'plami uchun brand-name ishlab chiqishda yuqoridagi fikrlarga tayanildi. Brand-name "MoKa" deb nomlandi. Shior "Ayollarni go'zallikka yetaklaydi".

2.4.2. Kolleksiya reklama loyihasini ishlab chiqish.

Ko'p ming yillar davomida reklama insoniyatning doimiy hamroxi bo'lib kelgan va shunday bo'lib qolmoqda.

"Reklama" atamasi lotincha "reclamare" so'zidan olingan bo'lib, "qattiq qichqirmoq", "habar qilmoq" ma'nolarini bildiradi.

Reklama – bu axborot tarqatishning pullik shakli bo'lib, u tovarni yoki xizmatni hajmini ko'paytirish maqsadida buyurtmachi tomonidan berilgan informatsiyani jamiyatga yetkazish usuli hisoblanadi.

Reklama quyidagi vazifani bajaradi:

- Axborot beruvchi yangi tovar, firma aniq hodisa to'g'risida aniq ma'lumot beradi;
- Bildiruvchi tovar yoki firmaga sekin-asta iste'molchilarni e'tiborini ko'paytirish, bilimlarini oshirish va shu tovarni sotib olishga undash;
- Eslatuvchi haridlar orasida tovarni qayerdaligini unutmaslik va tovar to'g'risida axborotni esda tutishni ta'minlaydi.

Reklamani yaratish quyidagi bosqichlardan iborat:

- Iste'molchilarni o'rganish, reklama qilinadigan tovar yoki xizmatlarni o'rganish va bozorni o'rganish;

- Reklama vositalarini ishlatish, ishlab chiqarish, maqsadni aniqlash va qo'yish, bozor chegaralarini belgilash va ijodiy yondashuvni ishlab chiqish;
- Reklama vositalarini tanlash va ularga sarflanadigan harajatlarni hisoblash. Narx va e'lonlarni ko'rsatish grafiklarini ishlab chiqish;
- E'lonlarni mazmunini tuzish, badiiy bezatish va ishlab chiqarish.

Reklama turlari bo'yicha quyidagilarga bo'linadi:

- Televidenie va radioreklama;
- Baner reklama;
- Suvenir yoki buyumli reklama;
- Direkt meyl;
- Tashqaridagi (narujnaya) reklama: brandmauerlar, videopanellar, siti format, yo'l ko'rsatkichlar, tranzit reklama, reklama, laytboksif, chiroqli panellar.

Hozirgi kunda reklamaning juda ko'p turlari mavjud. Yuklangan vazifasiga ko'ra, reklama turlicha klassifikatsiyalanadi. Masalan, tarqatish vositalariga ko'ra, quyidagi turlarga bo'linadi.

- tashqi reklama;
- transportdagi reklama;
- matbuotdagi reklama;
- TV dagi reklama;
- radio orqali reklama;
- internetdagi reklama;
- manzilli marketing;
- ko'rgazmalar;
- assotsiativ reklama.

Tashqi reklama: bilbordlar, elektron tablolar, e'lonlar, ko'cha jihozlari, vetrina va fasadlarning sifatli bezagi, reklamali ko'rsatkichlar va afisha qurilmalari va hokazo. Bundan tashqari buklet, flayer va bannerlarda tasvirlangan reklamalar mavjud bo'lib, ushbu to'plam uchun banner usuli tanlandi va kolleksiya reklama loyihasi ishlab chiqildi.

3. Ekologik qism

Bugungi kunda ekologiya muammosi insoniyat tomonidan keng muhokama qilinayotgan mavzulardan biri hisoblanadi. Hozirda ekologiya jamiyat va atrof-muhit o'rtasidagi o'zaro muammolarini o'rganadigan ijtimoiy fan deb qaraladi.

Bugungi ekologik vaziyatga halokatga yaqin deb ta'rif berish mumkin. Lekin insoniyat asosiy qismi tabiatdan chek-chegarasiz resurslar va boylik manbai sifatida qaralmoqda.[23].

Asosiy maishiy ekologik muammolarini hal etish uchun barcha insonlarning ekologik madaniyatini shakllantirish lozim. Buning uchun oilada milliy qadryatlar asosida va ta'lim tizimida ekologik madaniyatning negizini o'rgatish maqsadga muvofiq. [24].

Dunyoda axlat inqirozini bartaraf etish yagona optimal usuli bu- chiqindisiz texnologiyalardan foydalanish va resursni ikkilamchi qayta ishlashdir.

Ishlab chiqarishda esa texnologik jarayonni ekologizatsiyalash ya'ni tabiiy boylikni tejash, bezarar va chiqindisiz texnologiyalarni qo'llash, chiqindilarni saralash va qayta ishlash, buyumlardan qayta foydalanish va boshqalar insoniyat uchun ham iqtisodiy ham ekologik muammolarni yechadi.

Kostyum dizaynerlari ijodida ham ekologik muammolar inobatga olinib boshladi. Dizaynerlik ishida dastlab 1970 yy. oxirida – 1980 yy. boshida ekologik muammo mavzusi ko'rib chiqilgan va "Ekologik uslub" urfga kirgan. :Urfga kirgan liboslar tabiiy toladan, asosan zig'ir va ip matolar, tabiiy ranglar, qo'lda ishlangan bezaklar va boshqalar yaratilgan. Ekologik muammolar kiyim dizaynini loyihalash prinsplarida katta o'zgarishlarni ro'y berishiga olib keldi [24] .

Liboslarni loyihalashda ekologik muammolar quydagicha bartaraf etiladi:

-ko'pchilik hollarda sun'iy sintetik materiallardan foydalanish, ularni ishlab chiqarish jarayoni tabiatni ekstrimal yuqori zararlantirishi va maxsulot tabiatda assimulyatsiya bo'lmasligi hamda inson tanasiga negativ tasir ko'rsatishi sababli rad etilardi. Sun'iy sintetik materiallar o'rniga an'anaviy tabiiy tolalar zig'ir paxta ipak, jun kabi tabiiy materiallardan foydalanish tavsiya etiladi.

Lekin sun'iy sintetik materiallarni ham sifat xarakterlariga ko'ra me'yorda ishlatish maqsadga muvofiq bo'ladi. (masalan, maxsus kiyimlarda yoki texnologik jarayon uchun maxsus matolar). Jumladan qizil kitobga kiritilgan jonzotlardan olanidigan xam-ashyo o'rniga uni o'rnini bosadigan sun'iy sintetik materiallardan foydalanish tavsiya etiladi.

Xon-atlas matosidan ayollar oqshom liboslari to'plami dizayn loyihasini ishlab chiqishda texnologik jarayon bilan bog'liq ekologik muammolar quyidagi:

Tashqi muhitda o'zlashtirilmaydigan sun'iy sintetik materiallardan foydalanmaslik lozim. Chunki ularni ishlab chiqarish jarayoni tashqi muhitni ifloslantirish darajasi ekstrimal yuqori va tabiatga chiqarayotgan iflosliklari insonni sog'ligiga juda katta putur yetkazadi. Shu sababli sintetik matoni o'rniga ana'naviy tabiiy xon-atlas matosidan foydalanish tavsiya etiladi.

“Alternativ ekonomika”ni tarafdorlari fikriga ko'ra, xom ashyoni minimal talafotini ta'minlaydigan mukammal texnologiyaga asoslanishi zarur va aholini kichkina guruhining talablarini qondirish uchun buyumlarni kam seriyali ishlab chiqarish, ular resurslarni katta tejamligiga olib keladi, chunki faqat kerakli mahsulot ishlanadi. Bir xil buyumlarni ommabop seriyali ishlab chiqarishdan ancha tejamli bo'lib chiqadi.

Yuqoridagi fikrga tayanib liboslar to'plami kam seriyada ishlab chiqarishga mo'ljallab yaratildi.

“Inson ekologiya”siga yo'naltirilgan dizaynning oliy maqsadi – shaxsning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, inson uchun qulay va shinam muhit yaratishdan iborat. Ekologik yo'naltirilgan dizayn mahsulotlarga ekologik estetikaga tayanadigan quyidagi talablarni qo'yadi: ular yoqimli, nafis, chiroyli, insonni ruhiyatiga yaxshi ta'sir etadigan holda, unga osoyishtalik, tabiiylik va erkinlik his qilishiga imkon berishi lozim; ijobiy hissiyot tug'dirishi zarur.

Liboslar dizayni libosni qulayligini va atrof-muhit bilan uyg'unligi muammosini hal qilishga harakat qilmoqda. Shu munosabat bilan katta e'tibor yangi material, faktura, naqsh yaratishga qaratilgan.

Yaratilgan liboslar to'plamida yuqorida ko'rsatilgan talablar bajarilgan.

Xulosa

Liboslar dizayni kafedrası tomonidan “Xon atlas matosidan ayollar oqshom liboslari to'plami dizayn loyihasini ishlab chiqish” mavzusi berilgan. Bu mavzu bo'yicha kurs loyihasida zamonaviy moda yo'nalishi va bozor talabiga javob beradigan 5 ta model tanlandi. Tanlangan model iste'molchi talablariga qanchalik mos kelishi o'rganib chiqildi.

Bundan tashqari ijodiy manbaa tahlil qilinib kolleksiya yaratildi.

O'zbekiston sharoitini o'rganib chiqilgan holda, komplekt uchun material tanlandi va material hususiyatlari o'rganib chiqildi. “Unifrend Aldrich ingliz metodikasi” uslubi bo'yicha konstruksiya qurish usuli tanlandi. Ishchi hujjatlar tuzilib yangi model andozalari tayyorlandi, andozalar modellashtirilgan holda tanda ipi va chok haqqilari berildi.

Bitiruv malaka ishi ayollar oqshom libosini texnologik jarayoni loyihalandi. Modelni tikish uchun buyum material hususiyatlarini hisobga olgan holda bezak mato (setka) dan foydalanish mumkinligi ko'rib chiqilgan.

Xon atlas hususiyatlari va to'qilish turlari chuqur o'rganilib, xon atlas matosi ikatlariga mos ravishda bezak mato (setka) bilan bezak berildi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. I.Karimov “2014 yil yakunlari va 2015 yil ustuvor yo‘nalishlari” ma’ruzasi.
2. Карцер “Рисунок и Живопись”- М.; 2005
3. “Академический рисунок в изобразительном искусстве” –М.; 2008
4. Abdurasilov S., Tolipov N. “Rang tasvir”- T.; Bilim nashriyoti O‘MTXTM 2005
5. Boymetov B. , Abdurasilov S. “Chizmatasvir”-T.;TDPU 2004
6. S.Jumayev “Sozlar sadosi”. – T.: “Jahon” axborot agentligi bosmaxonasi, 2001.
7. Козлова Т.В. “Художественное проектирование костюма” М ЛП 1988 г.
8. Черемных А. И. “Основы художественного проектирования одежды” .М 1986 г.
9. Бердник Г.О. “Дизайн костюма” Ростов Феникс 2000 г.
10. Бердник Г.О. “Основы художественного проектирования одежды и эскизной графики костюма”. Ростов. Феникс. 2001 г.
11. X.X.Kamilova, N.K.Hamrayeva “Tikuv buyumlarini konstruksiyalash”. - T.: Cho’lpon nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi, 2011.
12. G.K.Xasanbayeva “Libos dizayni” ma’ruza matni. - T.: TTYeSI bosmaxonasi, 2011.
13. Е.А.Янчевская “Ayollar ustki kiymini konstruksiyalash”. - T.: “O’qituvchi”, 1997.
14. M.Sh.Jabborova “Tikuvchilik texnologiyasi”. – T.: “O’zbekiston”, 1994.
15. “Единая методика конструирования одежды сэв (ЕМКО СЭВ)”, Том – 2. – М.: 1988.
16. Ф.М.Пармон “Композиция костюма”. - М.: Легпромбытиздат, 1985.

17. О.И.Крымова «Проектирование швейных изделий». – Т.: «Укитувчи», 1985.
18. J.Ochilov “Gazlamashunoslik”. – Т.: Davlat ilmiy nashriyoti, 2008.
19. www.ziyo.net
20. www.moda.uz
21. www.modnaya.ru
22. fashion_tv.com
23. Экологические проблемы и основные тенденции в современном дизайне одежды [Электронный ресурс] / сайт Pobiv.ru. – М., 2007.
24. http://www.pobiv.ru/art/osnovnie_tendenzii

